



**Jinoyatchilik profilaktikasi vositasi sifatida raqamli
nazoratning siyosiy va huquqiy xavotirlari**

Samiyev Mironshoh Saloxiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy
odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi

samiyevmironshoh@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli nazorat texnologiyalarining jinoyatchilikning oldini olishdagi samaradorligi tahlil qilinadi va ularning siyosiy hamda huquqiy oqibatlari muhokama qilinadi. Shaxsiy hayot daxlsizligi, inson huquqlari, davlat nazoratining oshishi va demokratik institutlarga ta'siri kabi dolzarb masalalar yoritiladi. Muallif xalqaro tajriba va normativ-huquqiy asoslarga tayanib, raqamli nazorat vositalaridan foydalanishda xavfsizlik va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini asoslaydi. Shuningdek, jinoyatchilik profilaktikasi siyosati o'rganilib, uning kelajakdagi istiqbollari yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli nazorat, jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatchilik profilaktikasi, siyosiy xavotirlar, huquqiy muammolar, shaxsiy hayot, inson huquqlari, davlat nazorati, demokratik tamoyillar.

Krimonologiyada jinoyatchilikning oldini olish mavzusi doimiy dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Bunda ko'p olimlar, amaliyotchilar, hattoki talabalarning ham har xil qarashlari mavjud. Masalan, rivojlangan mamlakatlar qatori yurtimizda ham keng tarqalgan jinoyatchilik profilaktikasi usuli bu raqamli nazorat hisoblanadi. Bu sohaning chet davlatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilishi jinoyatchilikning oldini olishga katta yordam



bermoqda. Shu bilan birga, dastlab mayda huquqbuzarliklarni oldini olish, jamoat tartibini saqlash maqsadida qo'llanilgan kuzatuv texnologiyalari endi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning oldini olish, tergov qilishda tobora ko'proq rol o'ynamoqda. Lekin, shu bilan birga bu sohaning bir qator kamchiliklari va xavotirlari ham mavjud. Shuning uchun ham kuzatuv vositalarini yoritib beruvchi va unga qarshi kurashish yo'llarini o'rganuvchi tadqiqot ishlarini olib borish zarur. Bular jumlasiga:

birinchidan, davlatimiz rahbari fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tganlar¹. Bugungi kunda yuzni tanish tizimlari, videokuzatuv kameralar, geolokatsiya, telefon so'zlashuvlarini eshitish, dronlar va boshqa shu kabi raqamli nazorat vositalari jinoyatchilikning oldini olishda faol tarzda qo'llanilmoqda. Lekin bu texnologiyalar jinoyatchilikka qarshi kurashishga samarali tarzda yordam berayotgan bo'lsada, ularni me'yoridan ortiq tarzda yoki maqsadiz ishlatish shaxsiy hayot daxlsizligi va inson huquqlari kabi konstitutsiyaviy huquqlarga xavf tug'dirishi mumkin;

ikkinchidan shu asnosida, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasini qaytadan ko'rib chiqib, mulohazalar yuritish, shu bilan birgalikda, milliy qonunchiligimizga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalarni kiritish zamon talabidir. Chunki raqamli texnologiyalarga oid sohani tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar to'liq ishlab chiqarilmagan. Bunday holatda ushbu raqamli vositalardan foydalanishni suiste'mol qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birgalikda, qonunga zid jinoyatchilik profilaktikasi olib borish natijasida, shaxslarning konstitutsiyaviy shaxsiy daxlsizlik huquqi, shuningdek jinoyat huquqining buzilishiga olib kelishi mumkin.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 89-bet.



Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 31-moddasiga ko‘ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga egadir. Shu tufayli, mazkur huquqning konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yilganligi tadqiqotimizning dolzarbligini oshiradi;

Ushbu ilmiy ishimizda ilgari surilgan takliflar va mulohazalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlarida ko‘zlangan maqsadlarga erishishga poydevor bo‘ladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mavzuyimizni tahlil qilishdan oldin, umuman jinoyatchilik profilaktikasi va jinoyatlarning oldini olish deganda aynan nimalar tushunilishi kerakligini bilib olmoq lozim. Bu atamalar yuzasidan milliy olimlar va tadqiqotchilarimiz har xil fikrlarni bildirib o‘tishgan:

- Q.R.Abdurasulovanning fikriga ko‘ra, jinoyatlar profilaktikasi, eng avvalo, harakatni (harakatlar majmuini) yoki muvofiqlashtirilgan harakatlar tizimini, ya’ni muayyan ijtimoiy sub’ektlarning jinoyatni vujudga keltiruvchi shart-sharoit va sabablarga barham berish yoki ularni neytrallashtirish maqsadida muayyan narsalar va hodisalarga (omillarga) ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni anglatadi²;

² Crimonologiya. Mas’ul muharrir: M.H.Rustambaev / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: <<Adolat>>, 2007. 87-bet.



- S.S.Niyozova, N.S.Salayev, A.Allanova, X.Ochilovlar ushbu tushunchalar haqida: jinoyatchilik profilaktikasi yoki jinoyatlarning oldini olish – davlat organlari (shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlari), jamoat birlashmalari, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni neytrallashtirish yoki ularga barham berishga qaratilgan, o‘z mazmuniga ko‘ra har xil chora-tadbirlarni (ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarni) qamrab oluvchi, obyektiv tashqi omillarga va muayyan jismoniy shaxlarga yo‘naltirilgan faoliyatdir³, deb ta’riflashgan;

- I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, I.Y.Fazilovlar esa krimonologik profilaktika – bu jinoyatlarning sabablarini aniqlash, bartaraf etish yoki criminal xususiyatga ega bo‘lgan ta’sirini kamaytirish, shu jumladan, jinoiy ta’qiqlarni buzgan yoki shunday xatti-harakatni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy profilaktik chora tadbirlarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat hisoblanadi⁴, deb izoh berishgan;

Quyida raqamli nazorat texnologiyalari va usullari nimalarni o‘z ichiga olishi keltirilgan.

- videokuzatuv (CCTV) kameralari;
- GPS kuzatuvi;
- avtomatlashtirilgan yuzni aniqlash moslamalari⁵;
- davlat raqamini aniqlash moslamalari;
- sun’iy intellekt va u yordamida jinoyatlarni prognoz qilish;
- dronlar (uchuvchisiz uchish apparati)⁶;

³ С.Ниёзова, Х.Очилов, А.Алланова. Криминология (Умумий қисм). Ўқув қўлланма. // Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор Ф.Тахиров: ТДЮУ. 2021 – 49-бет.

⁴ Исмаилов И., Абдурасулова Қ.Р., Фазилов И.Ю. Криминология. Умумий қисм. Дарслик. – Академия. Т.: 2014. – В.179-180

⁵ Sarah Brayne. Predict and Surveil: Data, Discretion, and the Future of Policing. New York: Oxford Univ. Press. 2021.



- telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish⁷;

- rasm va videolar haqida metamaʼlumotlarni aniqlash;

- biometrik maʼlumotlar asosida aniqlashdan iboratdir;

Ushbu texnologiyalar, birinchidan, atrofda raqamli nazorat texnologiyalari mavjud boʻlsa, bu odamlarni jinoyat sodir etishdan qaytarishi mumkin;

ikkinchi va juda muhim jihati shundaki, mazkur vositalar politsiyaga jinoyatlarni tezroq fosh qilishda yordam beradi, chunki ular tergov va sud jarayonlarida foydalanish mumkin boʻlgan muhim dalillarni taqdim etadi. Masalan: video kuzatuv kameralari tomonidan olingan video guvohlarning soʻzlariga mos kelishi yoki jinoyat sodir boʻlgan joyda ilgari sezilmagan elementlarni koʻrsatishi mumkin;

uchinchidan, yuzlarni tanib olish kabi soʻnggi texnologiyalar odamlarning shaxsini aniqlashni tezlashtirishi mumkin, bu esa gumondorlarni tezroq ushlashga olib kelishi mumkin.

Biroq, raqamli nazorat texnologiyalari, xususan kuzatuv kameralarining aksariyat qismi sodir boʻlgan jarayonlarni, internetdagi maʼlumotlarga koʻra, 24 soatdan 72 soatgacha oʻz xotirasida saqlay olish imkoniyatiga ega. Bunday holatda esa, mabodo tergovchi yoki surishtiruvchi tezlik bilan yozib olingan tasvirlarni, audiolarni soʻrov yuborib qoʻlga kiritmasa, ularning oʻchib ketishi amri mahol. Bu esa tergovning olib borilishiga toʻsqinlik qilishiga, kerakli dalillar esa nobud boʻlishiga olib keladi.

⁶ Anna Kim. The importance of Surveillance technology in Crime Preevention. July 15, 2024 URL: <https://churchillcentral.com/the-importance-of-surveillance-technology-in-crime-prevention/>

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Oliy Kengash Axborotnomasi. 01.04.1995. URL: <https://lex.uz/docs/-111460>



Inson huquqlarining buzilishi bilan bir qatorda, elektron kuzatuvdan kengroq foydalanishni cheklashga sabab bu uning katta narxidir. Jamoat nazorati tizimini joriy qilishda kutilayotgan xarajatlarning ikki turini farqlash kerak: boshlang'ich xarajatlar va joriy xarajatlar. Dastlabki xarajatlarga misol uchun elektron kuzatuv moslamalarini sotib olish, dasturiy ta'minot, saytni tayyorlash va ularni ishga tushirish uchun simli yoki simsiz tarmoqni o'rnatish kabi xarajatlar kiradi. Joriy xarajalarga esa ushbu vositalarni ta'mirlash, kommunal xizmatlar, tizimlarni yangilash va monitoringning davom etayotgan xarajatlarini o'z ichiga oladi. Lekin aksariyat hollarda ommaviy ravishda jinoyatchilikni oldini olish maqsadida, bu jihatlar e'tibordan chetda qoladi⁸.

Shu bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar sun'iy intellekt texnologiyalarini, shu jumladan yuzni tanishni mas'uliyat bilan ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish ustida ish olib borib, yuzni tanib olish bo'yicha xalqaro me'yor va standartlarni ishlab chiqishni davom ettiryapti⁹.

Yevropaning ko'pchilik mamlakatlari GDPR (General Data Protection Regulation) — bu Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi nizomi bo'lib, u 2018-yil 25-maydan boshlab kuchga kirgan. GDPR shaxsiy ma'lumotlarni qanday to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish mumkinligini aniq tartibga soladi. GDPRning asosiy maqsadi — Yevropa Ittifoqi (YI) fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va ular ustidan shaxslar (ya'ni ma'lumot egalari) nazoratini kuchaytirishdir¹⁰.

Buyuk Britaniyada 2021-yildan beri taxminan 5,2 million kamera mavjud, bu esa mazkur davlatni Yevropadagi eng ko'p kuzatiladigan mamlakatlardan biriga aylantiradi.

⁸ Christopher Slobogin and Sarah Brayne. Surveillance Technologies and Constitutional Law. Annual Review of Criminology. Annu. Rev. Criminol. 2023. 6:219–40. First published as a Review in Advance on September 2, 2022. Page 220.

⁹ <https://publicsafety.ieee.org/topics/ethical-considerations-in-the-use-of-facial-recognition-for-public-safety>

¹⁰ General Data Protection Regulation (GDPR). The European Parliament and Council of the European Union adopted the GDPR on 14 April 2016, to become effective on 25 May 2018.



Londonda taxminan 627,000 kamera mavjud bo'lib, bu har 14 kishiga bir kamera tushishini anglatadi.

Germaniyada 2021-yildan beri taxminan 1,3 million kuzatuv kameralari mavjud. Berlin, Gannovera va Myunxen kabi shaharlar, jamoat joylari va transport infratuzilmasini kuzatish uchun katta sonli kameralar bilan jihozlangan. Birgina Berlinda kuzatuv kamalarining joriy etilishi jinoyatlar sonini 15% gacha kamaytirgan. Biroq, kuzatuvga oid xavotirlar, Germaniya Federal Razvedka xizmati (BND) fuqarolarni va xorijdagi chet el fuqarolarini kuzatgani ma'lum bo'lgach, kuchaydi. Bu amaliyot Germaniya Konstitutsion sudi tomonidan 2020-yilda Asosiy qonunga zid deb topildi¹¹.

AQShdagi Tadqiqotda yana ta'kidlanishicha, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan quyidagi texnologik vositalar xarid qilinmoqda:

- Avtomobil ichidagi va tana kameralar – 58%
- Davlat raqam belgilarini o'quvchi qurilmalar (ALPR) – 39%
- Dronlar / termal tasvirlash / otishmani aniqlovchi tizimlar – 34%
- Kriminalistik va tergov texnologiyalari – 33%
- Videokuzatuv uskunalari va dasturlari – 32%

Ushbu texnologiyalarning har biri huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'z vazifalarini samaraliroq bajarish imkonini beradi¹².

Kanada kabi ba'zi yurisdiksiyalar jamoat yoki yarim jamoat joylarida shaxsiy daxlsizlikning oqilona himoya qilinishini tan olgan. Kanada Jinoyat kodeksining 184.2-moddasiga ko'ra, suhbat ishtirokchisi bo'lgan shaxs rozi bo'lganda, shaxsiy muloqot ushlanishi mumkin. Sudyaga ruxsat berish uchun ariza ham bo'lishi kerak¹³.

¹¹ Gesellschaft für Freiheitsrechte. (2020, May 27). German Constitutional Court stops mass surveillance abroad. EDRI. URL: <https://edri.org/our-work/german-constitutional-court-stops-mass-surveillance-abroad/>

¹² Rabiah Butler. The future of law enforcement rests in its technology investment. Thomson Reuters. 16 October 2023 URL: <https://www.thomsonreuters.com/en-us/posts/government/future-of-law-enforcement-technology/>

¹³ The Criminal Code of Canada. 1985.



Xitoy 2021-yildan beri kuzatuv kameralaridan global foydalanish 1 milliarddan oshishi prognoz qilingan edi¹⁴. Ushbu davlatda 2013-yil 28-aprelda chiqarilgan “Iste’molchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohani tartibga soladi. Qarorda qayd etilishicha, foydalanuvchilarning onlayn ma’lumotlarini himoya qilish mas’uliyati internet-provayder zimmasiga yuklatiladi, xususan, u ma’lumotlarni to‘plashni faqat zarurat hollardagina cheklaydi va foydalanuvchilarning roziligini talab qiladi. Bundan tashqari, Internet-provayderlar shaxsiy ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga sotmasligi yoki oshkor qilmasligi yoki foydalanuvchining rozilgisiz ma’lumotlarni yo‘q qilmasligi kerak¹⁵.

Jinoyatchilik profilaktikasi vositasi sifatida raqamli nazoratning siyosiy va huquqiy xavotirlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

birinchidan, milliy qonunchiligimiz, xususan krimonologiya sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo‘lmish, “Huquqbuzarliklar profilkatikasi to‘g‘risida”gi qonunning asosiy tushunchalar qatorida, raqamli nazorat hamda raqamli nazorat vositalari, sun’iy intellekt atamalarini ham kiritish lozim. Biz esa mazkur tushunchalarni quyidagicha ifodaladik:

raqamli nazorat – huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish va boshqa kerakli ma’lumotlarni to‘plash maqsadida ma’lum shaxslar yoki guruhlar faoliyatini nazorat qilish uchun davlat hokimiyati va organlari tomonidan amalga oshiriladigan kuzatuv,

raqamli nazorat vositalari – huquqbuzarliklar profilaktikasida raqamli nazoratni olib borish uchun foydalaniladigan texnologik qurilmalar va usullar (videokuzatuv

¹⁴ <https://lawtech.asia/legal-implications-of-digital-surveillance-individual-protection/>

¹⁵ Русакова Е. П., Барулина В.П., Горбачева А.И./ Проблемы обеспечения конфиденциальности персональных данных // 18.10. Проблемы обеспечения конфиденциальности персональных данных в условиях реализации кампании по созданию «Умных городов» в Китае: недостатки закона о кибербезопасности. 2018. Ст. 204.



kameralari, yuzni aniqlash moslamalari, geolokatsiya tekshiruvi, dronlar, rasm va videolar orqali metama'lumotlarni aniqlash va h.k.);

sun'iy intellekt- insonning aqliy funksiyalarini (jumladan, oldindan belgilangan algoritmsiz yechim topish qobiliyatini) taqlid qiluvchi va muayyan vazifalarni bajarishda inson intellektual faoliyati natijalariga teng yoki undan yuqori samaradorlikka ega bo'lish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmuasi, deb mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchidan, raqamli nazoratni olib borishga vakolatli bo'lgan organlarning faoliyatida Yevropa Ittifoqining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish oid umumiy nizomi (GDPR)dagi ba'zi prinsiplar qo'llanilishi darkor. Bular:

birinchisi, ma'lumotlarni minimallashtirish (Data Minimization)dir. Bu tamoyil - shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashda faqat zarur bo'lgan ma'lumotlarga to'planishi va foydalanilishida ifodalanadi. U odatda axborot xavfsizligi, maxfiylik va fuqarolarning raqamli huquqlari sohasidagi qonunlarda qo'llaniladi. (GDPR)ning 5-moddasi 1-band, c kichik bandida belgilangan.

ikkinchisi esa, maqsadni cheklash (Purpose limitation) prinsipidir. Bu prinsip shaxsiy ma'lumotlarni faqat aniq, qonuniy va oldindan belgilangan maqsadlarda yig'ish va u maqsadlarga zid bo'lmagan tarzda qayta ishlash kerak degan tamoyildir.

Bu prinsip GDPRning 5-moddasi 1-band b kichik bandida) ko'rsatilgan asosiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillaridan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 416 bet.
2. Crimonologiya. Mas'ul muharrir: M.H.Rustambaev / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: <<Adolat>>, 2007. 216 bet.
3. С.Ниёзова, Х.Очилов, А.Алланова. Кримонология (Умумий қисм). Ўқув қўлланма. // Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор Ф.Тахиров: ТДЮУ. 2021 – 113 бет.
4. Исмаилов И., Абдурасулова Қ.Р., Фазилов І.Ю. Кримонология. Умумий қисм. Дарслик. – Академия. Т.: 2014. – В.179-180.
5. Sarah Brayne. Predict and Surveil: Data, Discretion, and the Future of Policing. New York: Oxford Univ. Press. 2021.
6. Anna Kim. The importance of Surveillance technology in Crime Prevention. July 15, 2024 URL: <https://churchillcentral.com/the-importance-of-surveillance-technology-in-crime-prevention/>
7. Р.Н. Нурмухаметов. Искусственный интеллект в профилактике и борьбе с преступностью: возможности и вызовы. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 12-1 (99). 2024. Ст. 185-189.
8. Christopher Slobogin and Sarah Brayne. Surveillance Technologies and Constitutional Law. Annual Review of Criminology. Annu. Rev. Criminol. 2023. 6:219–40. First published as a Review in Advance on September 2, 2022. Page 220.
9. Gesellschaft für Freiheitsrechte. (2020, May 27). German Constitutional Court stops mass surveillance abroad. EDRi. URL: <https://edri.org/our-work/german-constitutional-court-stops-mass-surveillance-abroad/>



10. General Data Protection Regulation (GDPR). The European Parliament and Council of the European Union adopted the GDPR on 14 April 2016, to become effective on 25 May 2018.

11. Русакова Е. П., Барулина В.П., Горбачева А.И./ Проблемы обеспечения конфиденциальности персональных данных // 18.10. Проблемы обеспечения конфиденциальности персональных данных в условиях реализации кампании по созданию «Умных городов» в Китае: недостатки закона о кибербезопасности. 2018. Ст. 201-206.

12. Gesellschaft für Freiheitsrechte. (2020, May 27). German Constitutional Court stops mass surveillance abroad. EDRI. URL: <https://edri.org/our-work/german-constitutional-court-stops-mass-surveillance-abroad/>

13. Rabihah Butler. The future of law enforcement rests in its technology investment. Thomson Reuters. 16 October 2023 URL: <https://www.thomsonreuters.com/en-us/posts/government/future-of-law-enforcement-technology/>